



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



“YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA BOBUR AKSIOLOGIK PORTRETI VA QADRIYATLAR INTERNALIZATSIYASI

AXIOLOGICAL PORTRAIT OF BABUR AND INTERNALIZATION OF VALUES IN THE NOVEL “STARRY NIGHTS”

Xudaykulova Shaxnoza Suvanovna

PhD, dotsent v.b.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, O‘zbek va rus tillari kafedrası

E-mail: sh.suvanovna@gmail.com

ORCID: 0009-0009-7734-9458

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./XSLE6772](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./XSLE6772)

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” tarixiy romani aksiolingvistik tahlil obyekti sifatida o‘rganiladi. Tadqiqotning maqsadi Zahiriddin Muhammad Bobur siymosi orqali namoyon bo‘ladigan milliy davlatchilik qadriyatlarining badiiy matndagi lisoniy ifodalanish qonuniyatlarini ochib berishdan iborat. Maqolada vatanparvarlik, mas’uliyat va adolat kabi aksiologik konseptlar lingvistik baholash nazariyasi prizmasida tadqiq etiladi. Tahlil jarayonida qahramonning aksiologik portretini shakllantirishda meliorativ va pejorativ birliklarning o‘rni hamda davlatchilik me‘yorlarining aksiologik internalizatsiya jarayoni yoritilgan. Tadqiqot natijalari romandagi aksiologik tasvirlarning “Boburnoma” asari bilan intertekstual bog‘liqligini hamda Bobur siymosining milliy davlatchilik tafakkuri uchun ideal model ekanligini isbotlashga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:** aksiolingvistika, aksiologik portret, aksiologik internalizatsiya, davlatchilik qadriyati, Bobur siymosi, vatan konsepti.*

***Annotation.** This article provides an axiologuistic analysis of Pirimqul Qodirov’s historical novel “Starry Nights”. The research aims to reveal the linguistic patterns of national statehood values reflected through the figure of Zahiriddin Muhammad Babur. Concepts such as patriotism, responsibility, and justice are studied through the lens of linguistic evaluation theory. The study highlights the role of meliorative and pejorative units in shaping the hero’s axiological portrait, as well as the process of axiological internalization of statehood norms. The findings underscore the intertextual connection between the novel and the “Baburnama,” positioning the figure of Babur as an ideal model for national statehood thinking.*

***Keywords:** axiologuistics, axiological portrait, axiological internalization, statehood value, Babur’s figure, concept of Motherland.*

Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning rivojlanishi tilni nafaqat aloqa, balki inson tafakkuri, madaniyati va qadriyatlarini ifoda etuvchi



vosita sifatida o'rganishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, tarixiy romanlarda milliy ong, davlatchilik g'oyalari va axloqiy qadriyatlarni aksiologik jihatdan o'rganish dolzarblik kasb etmoqda. Shu bois, Bobur ijodi o'zbek milliy qadriyatlari va davlatchilik kodeksining badiiy va lingvistik ifodasi sifatida muhim ilmiy tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Badiiy matn tahlilida qahramonning aksiologik portreti uning dunyoqarashi va axloqiy tamoyillarining lisoniy in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. “Yulduzli tunlar” romanida Bobur siymosining aksiologik qiyofasi uning nutqidagi meliorativ birliklar va davlatchilik konseptlari orqali shakllanadi. Ayniqsa, qahramon ruhiyatida kechadigan aksiologik internalizatsiya jarayoni muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon tashqi ijtimoiy majburiyatlarning Bobur uchun ichki e'tiqodga aylanishini ifodalaydi.

Ma'lumki, aksiologik tahlilda aksiologik juftliklar (diadalar) muhim o'rin tutadi. “Yulduzli tunlar” romanida Vatan va g'urbat aksiologik juftligi Bobur obrazining semantik yadrosini tashkil etadi. Vatan tushunchasi asarda shunchaki geografik hudud emas, balki oliy aksiologik qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Boburning Andijon va Movarounnahr haqidagi xotiralari “*Andijonning totli mevalari*”, “*ona zamin bag'ri*”, “*darmonbaxsh havosi*” kabi meliorativ birliklar orqali ifodalanadi [Qodirov, 2018:62]. Ushbu birliklar ijobiy baholovchi semaga ega bo'lib, Vatan konseptining muqaddasligini ta'kidlaydi. Bunga qarama-qarshi ravishda, Hindiston “*yot diyor*”, “*begona zamin*”, “*tinkani qurituvchi havo*”, “*nafasni bo'g'uvchi havo*”, “*odamni behol qiladigan havo*” kabi pejorativ birliklar orqali beriladi [Qodirov, 2018:415]. Bu yerda g'urbat konsepti salbiy aksiologik bahoni ifodalab, Boburning ruhiy holatini aks ettiradi. Demak, badiiy matnda Vatan va g'urbat aksiologik juftligi orqali milliy identitet va davlatchilik qadriyati lingvistik jihatdan qarama-qarshi baholanadi. Bu holat Bobur ongida Vatan tushunchasining individual sog'inch emas, balki milliy va tarixiy mas'uliyat sifatida idrok etilishini ko'rsatadi.

“I.V. Palashevskaya qadriyatlar tizimini tadqiq etar ekan, qadriyatning dinamik tabiatiga alohida urg'u beradi. Uning qarashlariga ko'ra, qadriyat muallifning aksiologik pozitsiyasi, davr ijtimoiy-madaniy konteksti va badiiy niyatiga qarab transformatsiyaga uchraydi [Палашевская, 2009:46]. Ushbu nuqtayi nazardan yondashilsa, P.Qodirov romanida “saltanat” va “taxt” tushunchalarining semantik transformatsiyasi yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, Boburning taxtdan ayrilishi va g'urbat iqlimidagi ruhiy kechinmalari kontekstida “saltanat” an'anaviy ijobiy qadriyat (shon-sharaf, qudrat) darajasidan individual-subyektiv bosqichga ko'chadi. Bu jarayonda lisoniy sathda pejorativ (salbiy) baho ustunlik qila boshlaydi: taxt tushunchasi endi baxt emas, balki “*og'ir yuk*” sifatida interpretatsiya qilinadi. Bu kabi aksiologik transformatsiya qahramon ruhiyatida kechayotgan aksiologik internalizatsiya jarayonining natijasidir. Ya'ni hokimiyat tashqi bir imtiyoz emas, balki qahramonning ichki vijdoni va andishasiga aylangan ma'naviy mas'uliyatdir. Shuning uchun ham Bobur nutqida



saltanatga nisbatan qo‘llangan “*og‘ir yuk*” iborasi uning aksiologik portretida shaxsiy manfaatlardan kechib, davlat va millat qayg‘usini o‘z ichki e‘tiqodiga aylantirgan hukmdor siymosini shakllantiradi.

Shuningdek, roman matnida Boburga nisbatan qo‘llangan “*donishmand shoh*”, “*taqdir sinovidan o‘tgan hukmdor*” kabi sifatlashlar ijobiy aksiologik bahoni beradi. Salbiy baholovchi birliklar esa *xiyosat, loqaydlik va adolatsizlik* bilan bog‘liq personajlarga nisbatan ishlatiladi. Bu usul orqali muallif badiiy matnda qadriyatlar iyerarxiasini yaratadi. Sadoqat, adolat va vatanparvarlik oliy qadriyatlar sifatida, xiyosat va befarqlik esa antiqadriyatlar sifatida talqin qilinadi. Bobur siymosi aynan shu aksiologik maydonning markazida joylashadi.

Umuman olganda, “Yulduzli tunlar” romanida Boburning aksiologik portreti mas’uliyat, andisha, adolat, vatanparvarlik va fidoyilik kabi qadriyatlar uyg‘unligida shakllanadi. Til birliklari asarda ijtimoiy-madaniy “kod” vazifasini o‘tab, Bobur siymosini o‘zbek milliy davlatchilik tafakkurining ideal modeli sifatida gavdalantiradi. Aksiologik internalizatsiya natijasida Bobur og‘ir g‘urbat davrida ham ma’naviy-axloqiy prinsiplaridan chekinmaydi. Bu esa qahramonning lisoniy va aksiologik qiyofasini yaxlit bir butunlikda namoyon etadi.

Adabiyotlar:

1. Выготский Л. С. Психология развития человека. М.: Изд-во Смысл; Изд-во Эксмо, 2005. – 1136 с.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
3. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
4. Палашевская И.В. Концепции ценностей в лингвистической теории // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. – Волгоград, 2009. – № 2 (36). – С. 45-49.
5. Qodirov P. Yulduzli tunlar (roman). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 544 b.